

INNOVATSIYALARNI AMALIYOTGA JORIY QILISHNING AYRIM
JIXATLARINI OCHIB BERISHKhaydarov Anvar Dilshod o'g'li¹¹ Iqtisodchi (TDIU Samarqand filiali bitiruvchisi)MAQOLA
MA'LUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:08.11.2024

Revised: 09.11.2024

Accepted:10.11.2024

KALIT SO'ZLAR:

oziq-ovqat havfsizligi,
resurs tejamkor ishlari,
tadbirkorlik, salohiyati,
investorlarga qulaylik,
biznes inkubatori.

Ushbu maqolada muallif tomonidan milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va ularni tobora, yuqori qo'shimcha qiymatiga ega bo'lgan innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish yo'lidagi izlanishlari, shuningdek, kapital bozorini takomillashtirish orqali moliyaviy resurslarni kengaytirishga alohida e'tibor berilishi kerakligi haqida ma'lumotlar to'plagan. Muallif ishonadiki ushbu ma'lumotlar sohaga qiziqqan barcha insonlarga dasturul amal bo'ladi.

KIRISH. Bugun mamlakatimizda olib borilayotgan xayrli ishlar o'zining ijobiy samaralarini bermiqda. Har sohada erishilayotgan yutuqlar so'zimizning isboti sifatida yaqqol namoyon bo'lib kelmoqda. Mamlakatimiz rahbari tomonidan qabul qilinadigan farmon hamda qarorlar yurt ravnaqi va xalqimizning turmush darajasini yanada yaxshilashga ko'makchi bo'layotgani barchamizni birdek quvontiradi. Men ham ushbu maqolamda turli bajarilayotgan sohalaridagi ishlarni tahliliy nigoh bilan amalda o'z tasdig'ini topishi uchun intilmoqdaman.

Tadqiqod mavzusining dolzarbligi

2023-yilning 7-8-sentabr kunlari Respublikamizda qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bilan hamkorlikda oziq-ovqat havfsizligini ta'minlashga bag'ishlangan xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tdi. Bugungi kunda oziq-ovqat havfsizligi va innovatsiyalar hamda investitsiyalar dunyo miqyosida dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Cho'llanish, yer degredatsiyasi, suv tanqisligi, iqlim o'zgarishlari, ishsizlik, investitsiyalarning dunyo

bo'ylab harakati kabi omillar ushbu yo'nalishdagi ishlarni yanada jadallashayotganini taqozo qilmoqda.

Natijalar va ularning tahlili

Har qanday loyihani amalga oshirishda ishchi kuchi, energiya, sarmoyasining kam sarflanishi albatta e'tiborga olinadi. Tabiiyki, biror yangi g'oya muallifi mana shu jihatlarni hisob-kitob qila olmasligi mumkin. Bu borada biznes akselerator dasturlarining ko'magi asqotadi. Ular rezidentlarga o'z biznes modelini "charxlash", zarur shartnomalarga ega bo'lish, savdoni amalga oshirishga ko'mak beradigan dasturni taklif qiladilar. Yangi g'oya bilan kelgan izlanuvchilarga akselerator yordam berib, g'oyani loyihaga aylantirishga ko'maklashadi. Uning rostdan ham iqtisodiy samara berishi, iste'molchilarga naf keltirishi isbotlansa, start-up loyiha sifatida shakllanadi. Yoshlarni innovatsion tadbirkorlikka keng jalb qilish va hududlarning ehtiyojidan kelib chiqib kichik biznes loyihalarini amalga oshirishda tizimli mexanizmlarni joriy qilish maqsadida Innox- biznes inkubatorini tashkil qilish lozim. Bu yoshlar g'oyalarini kichik biznes loyihalariga (start-up loyihalar) sifatida aylantirilishiga, mavjud kichik biznes loyihalarini esa o'qitish orqali rivojlantirishga qaratilgan dastur sifatida amalda albatta o'z tasdiqini topadi[1].

Avvallari ilm fan kishilari biror ilmiy ish, kashfiyot qilsa, uni tijoratlashtiradigan mexanizm qonunchiligimizda yo'q edi. Endi nafaqat biror soha yetakchilari, balki yoshlar ham g'oyalarini daromadli mahsulotga aylantiradigan yaxlit tizim yo'lga qo'yildi. Soha rivojiga qaratilgan e'tibor sabab ilm fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga yo'l ochildi. Davlatimiz rahbarining "Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarini moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" gi farmoni bilan innovatsion g'oyalar va start-up ekotizimini qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini yaratish maqsadida " UzVC" milliy venchur fondi tashkil etilgani soha rivojida muhim omil bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Start-up larni rivojlantirish uchun mablag' ajratadigan bunday moliyaviy muassasalar g'oyaning mahsulotga aylanishi, shu bilan birga, jahon bozorlariga chiqishiga ham xizmat qilmoqda. Har bir start-up ning istiqbolli yoki aksinchaligini tahlil qilish uchun investorda yetarlicha bilim bo'lmasligi mumkin. Venchur fond investitsiyalardan kapital yig'adi va uni istiqbolli loyihalarga sarflaydi. Eng asosiysi, bu jarayonda loyiha mualliflari qarzdor sanalmaydilar. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyani barcha birdek qabul qilishini kutish kerak emas. Yangi yondashuv bo'lgani va bozorda sinovdan o'tmagani uchun tadbirkorlik subyektlari innovatsiyadan cho'chidi. Sohadagi islohotlarning bosh maqsadi shu qo'rquvni yengib, bozor tamoyillariga moslashishini ta'minlaydigan metodlarni amaliyotga tatbiq qilishdir.

Bunda venchur fondlar yordamga bevosita keladi. Fondlar start-up larga sarmoya kiritgandan so'ng ular bilan faol muloqot qila boshlaydi. Bozor strategiyasini o'rganib, biznes modellarni ishlab chiqadi. Shuningdek, resurslardan foydalanishni nazorat qilib, mahsulotning bozorga tez kirishini ta'minlaydi. Davlatimiz rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi farmonida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va ularni rivojlantirish, yuqori qo'shimcha qiymatga ega innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, shuningdek, kapital bozorini takomillashtirish orqali moliyaviy resurslarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratilganligini e'tirof etsak arziydi. Xususan, oqshoq, ya'ni mayda siniq guruchdan yuqori qiymatli mahsulot tayyorlash loyihasini olaylik. Sirdaryolik olimlar uni un holiga keltirib, so'ngra yana butun don ko'rinishida qayta ishlashdi. Mana shu birgina yangicha yondashuv sabab uning qiymati bir necha barobar oshadi[2]. Davlatimiz rahbarining joriy yil tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuv joriy etilishi, soha vakillarini tadbirkorlik sohasida o'qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatlarini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo'yicha yaxlit ekotizim yaratilishini ta'kidlandi. Shu maqsadda tashkil etilgan Biznesni rivojlantirish banki tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashib kelayotgani kishini beixtiyor quvontiradi. Yangi loyihalarga zarur mutaxassislar endilikda jalb qilinadi. Tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshka konsalting xizmatlari ko'rsatiladi. Bu "tesha tegmagan" loyihalarni amalga oshirish, nafaqat mahalliy balki, jahon bozorlaridan ham munosib o'rin egallash istagidagilar uchun ham katta imkoniyatdir. Shuningdek, ilmiy natijadorlikni yanada yuqori pog'onaga olib chiqishdagi ko'makchidir. Ko'plab rivojlangan mamlakatlarda yunikorn, ya'ni kapitalizatsiyasi 1 milliard dollardan oshgan start-uplar trend darajasiga chiqqan. Sirdaryoda ham aynan shunday start-up lar bo'lishi lozim deb hisoblayman va buni bir nechta dalillar bilan izohlayman. Sirdaryo viloyati 1963-yil 16-fevralda tashkil etilgan bo'lib, shimoldan Qozog'iston Respublikasi, sharqdan Toshkent viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi va g'arbdan Jizzax viloyati bilan chegaradosh. Hozirgi kunda aholisi 900 ming kishidan ortiq. Shundan mehnat resurslari soni statistik ma'lumotlarga ko'ra 500 ming kishidan oshgan. Viloyatning investitsion jozibadorligini oshirishda va savdo-sotiq uchun geografik jihatdan qulay joylashganligi e'tiborga molik[3].

Bugun dunyo hamjamiyatini o'ylantirayotgan va tashvishga qo'yayotgan muammolardan biri bu shubhasiz, suvni tejash, qishloq xo'jaligida undan oqilona

foydalanish masalasi. Binobarin, obihayot taqchilligi sharoitida uni iste'mol qilish va sarflashda tejamkor texnologiyalar qanchalik tez qo'llanilsa, ommalashsa, shunchalik yaxshi bo'ladi. Suv resurslari Markaziy Osiyo mintaqasida, shu jumladan, O'zbekistonda xam yildan-yilga kamayib bormoqda. Demak, suvdan foydalanish madaniyatimizni o'zgartirish, faoliyatda yangicha yondashuvlarni tadbiq etish biz uchun hayotiy zaruratga aylanmog'i kerak. Bu boradagi ishlarni aslo kechiktirib bo'lmaydi. Ayni paytda mamlakatimizdagi 70 foizdan ziyod ekin maydonlari eski usulda sug'oriladi. Bunday sug'orish tizimi Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, "yerga nisbatan ham, suvga nisbatan ham vaxshilikdir". Buni odamlar ongiga, madaniyatiga singdirish o'ta muhim. 2030-yilga qadar Respublikamizdagi sug'orma dehqonchilik qilinadigan barcha ekin maydonlarini to'liq suv tejaydigan texnologiyalarga o'tkazish, sohaga bozor mexanizmlarini keng tadbiq etish, bunday uskunalarni joriy etgan fermer va dehqonlarni rag'batlantirish mexanizmlarini yanada ko'paytirish choralari ko'rilishi belgilandi. Umuman, mamlakatimizda oldingi yillarda boshlangan va o'z samarasini bergan tizim suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish bo'yicha sa'y-harakatlar izchil davom ettirilmoqda[4].

O'zbekistonda 2019-yildan boshlab suv tejoychi texnologiyalarni joriy etganlarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash mexanizmi yo'lga qo'yilgani, jumladan, subsidiyalar ajratilayotgani katta samara berib, klaster tashkilotlari va fermerlarni rag'batlanishiga sabab bo'lmoqda Bu kabi yengillik va qulayliklar mazkur yo'nalishdagi ishlarni rivojlantirishga hizmat qiladigan insonlar uchun foydalidir. Suv tejoychi texnologiyalarning afzalligi ko'p. Avvalo, bu usul davlat byudjetiga ko'p yuk bo'lib tushmaydi, asosan, suv iste'molchilarining o'z mablag'lari hisobiga barpo etiladi. U tufayli nafaqat suv, balki mineral o'g'itlar, yonilg'i moylash mahsulotlari, ishchi kuchi harajatlari sezilarli darajada iqtisod qilinadi. Hosildorlik esa oshadi. Mamlakatimizda hozirga qadar jami 473,5 ming gektar maydonda tomchilatib, 44,7 ming gektarda yomg'irlatib, 18 ming gektarda diskret, 133,9 ming gektar maydonda boshqa suv tejoychi sug'orish tizimlari joriy qilindi. 569 ming gektar ekin maydoni lazer uskunasi yordamida tekislandi. Natijada ularning ko'rsatkichi 1,2 million gektarga yoki sug'oriladigan umumiy maydonga nisbatan 28 foizga yetkazildi. Shu tariqa mavjud suv resurslaridan foydalanish samaradorligi yil sayin ortib bormoqda[5].

Shu o'rinda yurtimizda, umuman, jahon qishloq xo'jaligida eng ommalashgan tomchilatib, yomg'irlatib hamda pulsar sug'orish usullari Sirdaryo viloyatida ham keng joriy qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Tomchilatib sug'orish tizimi jahonning qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan ko'pgina mamlakatlarida keng qo'llaniladi. U jamoatchilik va ilmiy jihatdan intensiv texnologiya, deb tan olingan. Yomg'irlatib sug'orish ekinlarni sun'iy

yomg'ir hosil qilish asosida sug'orishga mo'ljallangan usul hisoblanadi. Bunda sug'orish quvurlar va yomg'irlatuvchi maxsus muhandislik qurilmalari yordamida amalga oshiriladi.

Xulosa va takliflar

To'g'ri olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri bu iqtisodiy o'sishni ta'minlashdir. Iqtisodiy o'sish aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorining o'sishini hamda aholining turmush darajasi oshganligini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish tabiiy resurslarning miqdori va sifatiga, mehnat resurslarning miqdori va sifatiga, asosiy kapital hajmiga, texnologiya darajasiga, talab va taklifga, resurslarning oqilona taqsimotiga, hududning investitsion jozibadorligiga, fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga va hududagi qulay tadbirkorlik muhitiga bog'liq deb xulosa qilishimiz mumkin.

Sirdaryo viloyatida qulay investitsion hududga aylantirishda quyidagi omillarga e'tibor qilish taklifini beramiz:

- Sirdaryo viloyatining qulay geografik joylashuvini hisobga olgan holda logistika tizimini yanada rivojlantirish;
- Tadbirkorlarga va xorijiy investorlarga qulaylik yaratish maqsadida eksport-import operatsiyalarida tizimni to'liq raqamlashtirish va Jahon Savdo Tashkilotining "Yagona standartlar" ta'riflariga o'tkazish;
- Viloyatda qishloq xo'jaligini, jumladan, paxtachilik, g'allachilik tarmog'larini rivojlanish xususiyatlarini inobatga olib, suv tejovchi texnologiyalarni ko'proq amaliyotga joriy qilish lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1- O.To'ychiyev "G'oya-qo'shimcha qiymatli, yuqori daromadli mahsulot". Yangi O'zbekiston, 2023-yil 30-avgust, 176-son.

2- E. Egamberdiyev "Mikroiqtisodiyot". Toshkent ilm-ziyo 2014-yil.

3- Sanaqulova B.R. Kichik tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash: doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati.- T.: BMA, 2016

4- To'xsanov Q.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliqqa tortishni takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TDIU, 2019.

5- <http://www.gov.uz> O'zbekiston Respublikasi hukumat portal

6- Mahmudova, H. T. (2022). BEMORLARNI PARVARISH QILISHNING AHLOQIY ME'YORLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(23), 218-221.